

KAMBAG'ALLIKNI ANIQLASH VA QISQARTIRISH MAMLAKATIMIZ IJTIMOY-IQTISODIY SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHI.

Abduraxmanov Orifbek Odiljon o'g'li

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Javmanov Jamshed Abdusamatovich

Uralov Baxtiyor Maxmudovich

Narziyeva Guzal Baxtiyorovna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi kafedrasi assistentlari

Annotatsiya. Ushbu maqolada kambag'allikni aniqlash va qisqartirishning mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy siyosatidagi ahamiyati o'rganilgan va tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Kambag'allik, iste'mol savati, ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, qishloq xo'jaligi.

Аннотация. В данной статье рассматривается и анализируется значение определения бедности и стигматизации в социально-экономической политике нашей страны.

Ключевые слова: Бедность, потребительская корзина, социально-экономическая политика, сельское хозяйство.

Abstract. This article examines and analyzes the significance of the definition of poverty and stigma in the socio-economic policy of our country.

Key words: Poverty, consumer basket, socio-economic policy, agriculture.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan ayni zamonda, butun dunyoda olimlar, siyosatchilar, davlat arboblari va jamoatchilik vakillari o'rtasida kambag'allikning kelib chiqish sabablari, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari, uni bartaraf etish yo'llari xususida ilmiy munozaralar, turli ko'rinishdagi davra suhbatlari va sababiy bog'liqlikda ilmiy-amaliy izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Kambag'allik ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida iqtisodiy rivojlanish jarayonida moddiy va nomoddiy imtiyozlardan foydalanish va daromadlarni taqsimlashdagi tengsizlikning oqibati sifatida izohlanadi.

Insoniyat ming yillikka qadam qo'ygan 2000-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Ming yillik Rivojlanish Maqsadlari deklaratsiyasi qabul qilinganda birinchi maqsad sifatida qashshoqlik va ochlikka barham berish bejizga qo'yilmagan. Mazkur deklaratsiyada keltirilganidek, sayyoramizda 2015-yilga qadar kuniga 1,25 AQSH dollaridan (xarid qobiliyati paritetini hisobga olgan holda) kam daromad oladiganlar va ochlikdan aziyat chekayotgan dunyo aholisi sonini ikki barobargacha pasaytirish barcha mamlakatlar oldida turgan eng muhim vazifalardan etib belgilangan edi.

Globalashuv jarayoni tobora chuqurlashib, davlatlar o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarining kengayishi natijasida hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) taraqqiyot dasturlarida belgilangan maqsadlarni hal etish borasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, chora-tadbirlar samarasi o'laroq, qo'lga kiritilayotgan ijobiy tendensiyalarga qaramay, kambag'allik muammosi barcha rivojlanayotgan mamlakatlar qatori O'zbekiston Respublikasida ham o'tkir muammolaridan biriga aylangan. Ayniqsa, bugun dunyo bo'ylab tarqalayotgan koronavirus pandemiyasi va global karantin sharoitida kambag'allikning salbiy sotsial effekti yana bir bor namoyon bo'lib bormoqda.

Haqiqatdan ham, muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida respublikamizda kambag'allikni qisqartirishni yechimi kutayotgan dolzarb masalasi sifatida kun tartibiga olib chiqildi. Bu borada, Davlatimiz rahbari shunday o'ziga xos yondashuvni ilgari surdiki, unga ko'ra "Kambag'allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko'paytirish, yoppasiga kredit berish, degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o'qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg'otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o'qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to'lash tizimini joriy qilish kerak"⁶¹.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining tashkil etilishi esa aynan ushbu vazifalarni ijrosini tizimli ta'minlashda amaliy qadamgina bo'lib qolmasdan, yurtimizda kambag'allikni qisqartirish borasida tarixiy instutsional islohotlar amalga oshirilayotganining yorqin ifodasi hamdir.

Kambag'allik yurtimizda ko'p yillar "yopiq mavzu" bo'lib, avvallari bu kategoriyaning o'rniga yumshatish qabilida "kam ta'minlanganlik" tushunchasi bilan almashtirib kelingan edi. Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan ochiq demokratik siyosat tufayli mazkur muammoning mavjudligi, uning yechimi bo'yicha chuqur tahlillarni amalga oshirish, uni pasaytirish va kelajakda bartaraf etish haqida yuksak minbarlarda ham ochiq-oydin gapirilmoqda.

Xususan, mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yilning 24-yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida kambag'allikni qisqartirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Murojaatnomada ta'kidlaganidek: "Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda aholining aksariyat qismi yetarli daromad manbaiga ega emasligi sir emas. Har qanday mamlakatda bo'lgani kabi bizda ham kam ta'minlangan aholi qatlamlari mavjud. Turli hisob-kitoblarga ko'ra, ular taxminan 12-15 foizni tashkil etadi. Bu o'rinda gap kichkina raqamlar emas, balki aholimizning 4-5 millionlik vakillari haqida bormoqda. Bu ularning bir kunlik daromadi 10-13 ming so'mdan oshmayapti, degani. Yoki bir oilada mashina ham, chorva ham bo'lishi mumkin, lekin bir kishi og'ir

⁶¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2020-yil 25-yanvar, № 19 (7521)

kasal bo'lsa, oila daromadining kamida 70 foizi uni davolatishga ketadi. Xo'sh bunday oilani o'ziga to'q deyish mumkinmi? Prezident sifatida meni odamlarimizning ovqatlanishi, davolanishi, bolalarini o'qitishi, kiyintirishi kabi hayotiy ehtiyojlari nima bo'layapti, degan savol har kuni qiynaydi. Kambag'allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy, ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir". O'zbekistonda oxirgi 2 yil ichida ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni 1,3 barobarga ko'paydi, nafaqalar miqdori 2 barobarga oshdi. Lekin kam ta'minlangan aholiga ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam pulini to'lash yoki ular miqdorini oshirish orqali ushbu muammo to'liq yechilmaydi. Zero ushbu o'rinda qadimgi Xitoy faylasufi, daosizm asoschisi Lao Szinning chuqur hayotiy mulohazalari asosida ta'kidlagan hikmatli so'zidan iqtibos keltiradigan bo'lsak, **“Och qolgan insonga baliq bersang, uni bir kunlik qornini to'ydirasan. Agar unga qarmoq berib, baliq ovlashga o'rgatsang, uni bir umr ochlikdan qutqarasan”** deydi.

Shu nuqtayi nazardan, Yurtboshimiz tomonidan Jahon banki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi va boshqa xalqaro nufuzli tashkilotlar bilan birga kambag'allikni kamaytirish dasturini ishlab chiqish taklifi ilgari surildi. Bunda xalqaro me'yorlar asosida chuqur va har tomonlama kompleks izlanishlar olib borilib “kambag'allik” tushunchasi, uni aniqlash mezonlari va baholash uslublarini qamrab olgan yangi metodologiya yaratish lozimligi ta'kidlab o'tildi.

Kambag'allikni pasaytirish va ochlikka qarshi kurashish uchun oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va ushbu sohaga investitsiyalarni sarflashni talab etadi. BMT tomonidan e'lon qilgan ma'lumotlarga ko'ra dunyo aholisining 85 foizi qishloqlarda istiqomat qiladi. Bu qariyb 3,5 milliard aholi sonini tashkil etadi. Jahonda 800 million aholi ochlikdan aziyat chekmoqda. 2030-yilda dunyo aholisi soni 8,3 milliard kishini tashkil etishi bashorat qilinayotgan bo'lsa, o'z-o'zidan qishloq xo'jaligini rivojlantirishga bo'lgan talabning keskin oshishi resurslar unumdorligi darajasini oshirish bilan bog'liq muammolarning kuchayishi, ayni haqiqat, hisoblanadi. Basharti 20-asrda boshlangan “yashil inqilob”ning ikkinchi to'lqinini boshlash vaqti kelganligidan dalolat bermoqda.

Kambag'allik millatning sog'ligi, mehnatga layoqati va ilmiy salohiyatiga putur yetkazadi. Shuningdek, uning oqibati natijasida davlat byudjetining pasayishi va siyosiy jarayonlarning keskinlashishiga sabab bo'ladi.

Shu paytga qadar BMT, Jahon banki, Jahon valyuta tashkiloti va turli jamg'armalar tomonidan kambag'al davlatlarga milliardlab AQSH dollari qiymatida moliyaviy yordamlar, subsidiyalar yo'naltirilganiga qaramay aholining savodxonligi oshib, o'zini-o'zi ish bilan ta'minlash va tadbirkorlik qobiliyati oshib qolmadi. Bularning barchasi besamar ketdi. Ushbu davlatlar kambag'allik balosidan qutula olishmadi. Aynan, Abxidjit Banerdji, Yester Dyuflo va Maykl Kremer buni isbotlab

berishdi va dala tajribasi asosida kambag'allikdan forig' bo'ladigan "tabletka"ni kashf qilishdi hamda o'zlarining nomlarini iqtisodiyot tarixida muhrlab qo'yishdi.

Mutlaq kambag'allikda kun kechiruvchi odamlar biologik jihatdan tirik qolishlari uchun minimal ehtiyojlarnigina qondirib yashashga mahkum bo'ladilar. Kambag'allik kategoriyasi ko'p qirrali bo'lib, faqatgina insonlarning moddiy ehtiyojlarining qondirilishini emas, balki hayot kechirish sifati, ijtimoiy hayotda faolligi va sog'lom ishtirok etishini inobatga olgan holda o'lchashni talab etadi.

Davlat statistika qo'mitasining "**O'zbekiston statistika axborotnomasi**" ilmiy elektron jurnalida qayd etilganidek, aholining kambag'alligi tengsizlik muammosi bilan uzviy bog'liq ekanligi to'g'risida tadqiqotlar keltirilgan bo'lib, kambag'allik darajasini aniqlash uchun turmush kechirishning eng quyi standartlari ishlab chiqilishi qayd etilgan. Ushbu standartlar qonun yo'li bilan belgilab qo'yiladigan, aholi asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan eng kam miqdorni ta'minlaydigan turmush darajasining normativ ko'rsatkichlaridir. Mazkur mezonlar orasida "iste'mol savati", yashash uchun zarur bo'lgan mablag'ning eng kam miqdori va eng kam iste'mol byudjeti muhim ahamiyatga ega.

Fiziologik eng kam miqdor (iste'mol savatining eng kam miqdori) insonning asosiy fiziologik ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan mahsulotlarga xarajatlarni qamrab oladi.

Yashash uchun zarur bo'lgan mablag'ning ijtimoiy eng kam miqdori fiziologik eng kam miqdordan tashqari, muayyan davlatning rivojlanish darajasi uchun xos bo'lgan eng kam ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish uchun xarajatlarni ham qamrab oladi.

Iste'mol savati bizning davlatda eng kam iste'mol darajasini ta'minlaydigan 35 xil mahsulot va xizmatlar to'plamidan tarkib topgan bo'lib, ularning 11 tasini non va non mahsulotlari, kartoshka, sabzavot, meva, go'sht, sut va baliq mahsulotlari, tuxum, shakar va qandolat mahsulotlari, o'simlik yog'i va margarin, boshqa oziq-ovqat mahsulotlari tashkil etadi. Iste'mol savatiga nooziq-ovqat mahsulotlarining 4 guruhi hamda xizmatlarning 5 turi ham kiradi.

Kambag'allik - turmush kechirish, mehnat layoqatini saqlab turish, avlodlar uzviyligini davom ettirish uchun zarur bo'lgan eng kam ehtiyojlarni qondirish imkoniyatiga ega bo'lmagan shaxs yoki ijtimoiy guruhlar iqtisodiy ahvolidan ko'rsatkichidir. "Kambag'allik" nisbiy tushuncha hisoblanib, har bir jamiyatdagi turmush darajasining umumiy standartiga bog'liq bo'ladi. Kambag'allik holati resurslarning uzoq muddat davomida yetarli bo'lmasligini avvalgi jamg'armalar bilan ham, qimmat tovarlarni xarid qilishdan vaqtincha tejash hisobiga to'plangan mablag' bilan ham qoplash imkoniyati mavjud emasligini ko'rsatadi.

Jahon banki va BMTning Taraqqiyot dasturi mutaxassislarining fikricha, O'zbekistonda kambag'allikning kuchli mavsumiy tarkibiy qismi mavjud, bu esa iqtisodiy faoliyatning davriy taqvimiy xususiyatlarini aks ettiradi. Ish bilan band

bo'lganlarning taxminan 27 foizi qishloq xo'jaligida ishlaydi va ishlab chiqarish jadvallari mavsumga o'ta bog'liq bo'lganligi sababli, farovonlik va iste'mol darajasi fasllar orasida farq qiladi.

Hosil yig'im-terimi paytida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaradigan va sotadiganlar uchun ko'proq ishlash imkoniyatlari, ko'proq oziq-ovqat va ko'proq daromad mavjud. Biroq qishloq xo'jaligi faoliyati kam bo'lgan davrlarda, daromad, odatda, kam bo'ladi va oziq-ovqat ko'pincha zaxiralardan olinadi yoki sotib olinadi. Garchi bu nisbat vaqt o'tishi bilan tobora kamayib borgan bo'lsa-da, daromad shkalasi bo'yicha quyi to'rt detsilda bo'lgan uy xo'jaliklari iste'mol xarajatlarining deyarli uchdan ikki qismi hali-hanuz oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri keladi, bu esa qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat mahsulotlarining narxi, oziq-ovqat xavfsizligining mavjud emasligi va qashshoqlik o'rtasidagi muhim bog'liqliklarni namoyon qiladi.

Uy xo'jaliklari daromadlarining sezilarli darajada o'zgarib turishi mavsumiy mehnat migratsiyasi bilan ham bog'liq, mavsumiylik esa ichki iqtisodiy faoliyatning ko'plab boshqa sohalarida, masalan, qurilishda ham mavjud. Yalpi ichki mahsulotning o'sishi hisobiga kambag'allikning qisqarish tezligi kam bo'ldi. O'zbekistonning o'sish sur'atining yuqoriligi va YAIMning barqarorligi haqidagi ma'lumotlari hisobga olinsa, taqqoslanayotgan mamlakatlarning tajribasi asosida kambag'allik darajasining yanada tez kamayishini kutish mumkin edi.

So'nggi bir necha avlodi butunlay qashshoqlikdan chiqib ketgan kishilarning ko'pchiligi ish bilan ta'minlanganlik natijasida daromadning ortishi yuzaga keldi. O'zbekiston bu dinamikaning ajoyib namunasi: 10 yillik davrda mehnat va kichik biznes daromadlarining o'sishi kambag'allikning qisqarishi va umumiy farovonlikka erishishga olib keldi. Bugungi kunda ish haqi va biznesdan keladigan daromad O'zbekistonning unchalik boy bo'lmagan oilalari orasida uy xo'jaliklari daromadlarining asosiy manbai hisoblanadi.

Bundan tashqari, oxirgi o'n yillikda ushbu daromad manbalarining ahamiyati tobora ortib bordi, aksincha, nafaqalarning, ijtimoiy yordam dasturlari va boshqa daromad turlarining roli kamaydi. Biroq O'zbekistonning mehnat bozorida sezilarli zaifliklar mavjud. Xalqaro valyuta fondi (XVF)ning mamlakatlar bo'yicha so'nggi hisobotida, mehnat zaxirasiga yiliga 500 ming nafar yangi ishchi qo'shilishiga qaramasdan, ish bilan bandlikning qayd etilgan o'sishi ishlab chiqarish va daromadning o'sishidan ortda qolayotganligi ta'kidlanadi.

Kambag'al oilalar orasida bandlik imkoniyatlari kamroq; yaxshiroq ta'minlangan kishilar ancha yuqori o'rtacha mehnat daromadlariga egalar. Umumiy rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, mehnat qiladigan aholining 38 foizi norasmiy ish bilan band (43%i yoshlar). Bu ishchi kuchining katta qismi rasmiy ijtimoiy sug'urta dasturlaridan foydalanmayapti degan ma'noni anglatadi.

1990-yilda Jahon banki ekspertlari kambag'al davlatlarda qo'llanadigan standartlardan foydalanib, dunyodagi kambag'al aholi sonini o'lchashni taklif qilishgan

edi. 15 ta davlatdagi kambag'allikning milliy darajasini o'rganib, xarid qobiliyati asosida valyuta kurslarini qo'llagan holda (xarid qobiliyati; butun dunyodagi ana shu narxlar asosida hisoblanadi) qayta hisoblashdi. Tovar va xizmatlar to'plami narxini barcha mamlakatlarda to'g'ri taqqoslash uchun ana shunday qilingan.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 736 million kishi (aholining 10 foizi) o'ta qashshoqlik sharoitida (kuniga 1,9 dollardan kam daromadga ega), dunyo aholisining deyarli yarmi – 3,4 mlrd kishi – kuniga 5,5 dollardan kam daromadga ega. Qashshoqlik darajasi eng yuqori qit'a Afrika, sayyoradagi eng qashshoq mamlakatlar – Kongo demokratik respublikasi (o'ta qashshoqlik darajasi – 77,1 foiz) va Madagaskar (77,6 foiz).

O'zbekiston – aholi jon boshiga to'g'ri keladigan milliy daromad ko'rsatkichi bo'yicha o'rtacha daromadga ega mamlakatlaridan qatoridan joy oladi (Yiliga kishi boshiga o'rtacha 1533 AQSH dollari). Daromadning o'rtacha darajasi ikki guruhga bo'linadi. Daromadi o'rtacha darajadan past mamlakatlar – kishi boshiga yiliga 1036-4085 dollar va daromadi o'rtacha darajadan yuqori mamlakatlar – kishi boshiga yiliga 4086-12615 dollar. Birinchi guruhdagi mamlakatlar uchun mezonlar qabul qilingan, bu mezonlar bo'yicha kuniga kishi boshiga 3,2 dollar kambag'allik chizig'ining o'rtacha ko'rsatkichini anglatadi. Milliy daromadi o'rtachadan balandroq mamlakatlar uchun kuniga kishi boshiga 5,5 dollar kambag'allik chizig'ining o'rtacha ko'rsatkichi deb qabul qilingan.

O'zbekiston uchun qashshoqlik chizig'i – kuniga 3,2 dollardan kam pulga yashash degani, misol uchun besh kishidan iborat oilaning yalpi daromadi oyiga 480 dollar yoki 4,6 million so'mdan kam bo'lsa, bu oilani kambag'al deb hisoblash mumkin.

Ma'lumki, 2018-yildan buyon Jahon banki "Taraqqiyot strategiyasi" markazi bilan hamkorlikda "O'zbekiston fuqarolarini tinglab" nomli loyihani amalga oshirib kelmoqda. Mazkur loyiha doirasida Jahon bankining Qashshoqlik va tenglik bo'yicha global amaliyot markazi eksperti Uilyam Zeyts rahbarligida **"Markaziy Osiyoda tumanlar miqyosidagi qashshoqlik darajasi, o'rtacha iste'mol va aholining o'rta sinfi ko'rsatkichlari"** bo'yicha hisobot tayyorlandi. Unda kambag'al va o'rta sinf aholi yashaydigan tumanlar xaritalari butun mintaqa, shuningdek, har bir mamlakat, xususan, O'zbekiston uchun alohida keltirilgan.

Hisobotda keltirilgan natijalarga erishish uchun **"O'zbekiston fuqarolarini tinglab"** loyihasi doirasidagi so'rovnomma ma'lumotlari va tuman darajasidagi ochiq manbalardan olingan ko'rsatkichlarni birlashtirish orqali har xil hisoblangan ko'rsatkichlarni baholash imkonini beruvchi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Kichik tumanlar darajasida baholash uslublari farovonlik ko'rsatkichlari aniqligini oshirishga qaratilgan. Baholash natijalaridan ko'pincha davlat siyosatining zarur chora-tadbirlarini ishlab chiqish va kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlar samaradorligini oshirish yoki mahalliy darajadagi ijtimoiy guruhlar muammolarini hal qilish maqsadlarida mablag'lar ajratilishida foydalaniladi.

Jahon banki tomonidan dunyo mamlakatlari aholisining qashshoqlik darajasini baholashdan asosiy maqsadi xalqaro miqyosda taqqoslash imkoniyatini beruvchi yagona standartga keltirishdan iborat. Shu asosda olingan ko'rsatkichlar Jahon banki, Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo davlatlar va boshqa hamkorlar tomonidan belgilangan rivojlanish maqsadlariga erishishda barqarorlik monitoringini yuritishda qo'l keladi.

Hisobotda foydalanilgan uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, bu yerda xalqaro qashshoqlik chegarasidan (kuniga 1,9 dollar) tashqari, mamlakatlarning rivojlanish xususiyatlari va bosqichlarini hisobga olgan holda daromadlar bo'yicha boshqa qashshoqlik chegaralari qo'llanilgan. Xususan, daromad darajasi o'rtachadan past davlatlar uchun qashshoqlik darajasi kuniga 3,2 dollar va daromad darajasi o'rtacha darajadan yuqori bo'lgan mamlakatlar uchun kuniga 5,5 dollar miqdorida belgilangan.

Natijalardan ma'lum bo'lishicha, O'zbekistonning aksariyat hududlarida qashshoqlik darajasi kuniga 3,2 dollarni tashkil yetgan. Bu Markaziy Osiyoning boshqa (Tojikiston, Qirg'iziston) mamlakatlariga qaraganda birmuncha past ko'rsatkichdir. "O'zbekiston fuqarolarini tinglab" loyihasi bo'yicha tadqiqot xulosalaridan qashshoqlikning taqqoslama darajasini aniqlashda foydalanilgan. Bu hisob-kitoblar 2018-yilda kuniga 3,2 dollarni tashkil yetadigan qashshoqlik chegarasidan pastda bo'lgan aholining ulushi 9,6 foizni, kuniga 5,5 dollarga teng bo'lgan qashshoqlik darajasida yesa 36,6 foizni tashkil etayotganini ko'rsatadi.

Tahlillar O'zbekistonning ayrim hududlarida daromad notekis taqsimlanganligini anglatmoqda. Kambag'allikning yuqori darajasi Toshkent, Samarqand, Surxondaryo, Andijon viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasining ayrim tumanlarida kuzatilmogda. O'rta sinf aholining umumiy aholi sonidagi ulushining eng past darajasi ham Samarqand, Surxondaryo, Andijon, Sirdaryo, Toshkent, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi ba'zi tumanlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

Albatta, Prezidentimiz qayd etganidek, kambag'allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko'paytirish, yoppasiga kredit berish, degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o'qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg'otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o'qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to'lash tizimini joriy qilish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATIGA:

1. 2020-yil 26-martdagi "Iqtisodiyotni kambag'allikni qisqartirishga oid Davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5975-sonli farmoni
2. 2020-yil 26-martda O'zbekiston Respublikasi Respublikasi "Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlar

3. Alikulov, A. I., & Bakhriev, M. (2023). IMPROVING THE ACCOUNTING OF THE COSTS OF MODERNIZATION AND REPAIR OF KEY EQUIPMENT IN AGROCLUSTERS. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(11), 14-19.
4. Alikulov, A. M., & Toshpulatov, J. (2023). Agroklastarlarda moliyaviy natijalar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari.
5. Alikulov, A. I., & Bakhriev, M. (2023). IMPROVING THE ACCOUNTING OF THE COSTS OF MODERNIZATION AND REPAIR OF KEY EQUIPMENT IN AGROCLUSTERS. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(11), 14-19.
6. Аликулов, А. И. (1993). Совершенствование учета затрат на производство, переработку и исчисление себестоимости продукции хлопка-сырца в хлопковом комплексе (на примере хлопководческих хозяйств и хлопкоочистительных заводов Самаркандской области).
7. Эшмурадов, У. Т. (2022). СОТИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИ БЎЙИЧА ТРАНСФОРМАЦИЯСИ МАСАЛАЛАРИ. *Архив научных исследований*, 2(1).
8. Tashmuratovich, E. U. (2023). IMPROVEMENT ACCOUNTING OF PROCESS REALIZATION IN FARM ENTERPRISES. *JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE*, 6(5), 20-28.
9. Olimjonovna, J. R. D., & Tashmuratovich, E. U. B. (2023). AGROKLASTERLARDA KAPITAL SARFLAR HISOBINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI. *MASTERS*, 1(1), 112-118.
10. Ixtiyorovich, Q. L. A., Shavkat o'g'li, I. R., & Tashmuratovich, E. U. B. (2023). XARAJATLAR HISOBIDA QO 'LLANILADIGAN ATAMALAR MOHIYATI TAHLILI VA ULARNI TIZIMLASHTIRISH. *MASTERS*, 1(1), 127-131.
11. Eshmuradov, U. B. (2023). Sotish jarayonlari hisobini buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish.
12. Mardiyevna, S. G., & Abdusamatovich, J. J. (2022). SANOAT 4.0 KONSEPSIYASI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany)*, 712-721.
13. Пардаева, О. М., & Жавманов, Ж. А. (2023). СНИЖЕНИЕ УРОВНЯ БЕЗРАБОТИЦЫ ПУТЕМ ВОВЛЕЧЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ НА САМОЗАНЯТОСТЬ. *PEDAGOG*, 6(4), 568-574.
14. Жавманов, Ж. А., & Уралов, Б. М. (2023). Методология оценки и измерения бедности населения. *Pedagog*, 6(11), 237-246.
15. Abdusamatovich, J. J. (2023). THE POPULATION WISHES FOR POVERTY REDUCTION AND EMPLOYMENT. *JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT*, 6(5), 26-38.

16. Жавманов, Ж. А., Хотамов, А. А. У., & Амонов, С. Т. У. (2023). ПЕРСПЕКТИВЫ ИЗВЕДЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ ОТ БЕДНОСТИ. *JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN*, 6(5), 193-203.
17. Жавманов, Ж. А., & Муродкулов, Ж. Х. (2023). ФАКТОРЫ БЕДНОСТИ В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ. *PEDAGOG*, 6(11), 247-254.
18. Жавманов, Ж. А. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОПРЕДЕЛЕНИЯ КРИТЕРИЕВ БЕДНОСТИ. *JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN*, 6(5), 306-318.
19. Kozimbek G'anijon o'g, M., & Abdusamatovich, J. J. (2023). КАМБАГ'АЛИКНИ БАРТАРАФ ЕТИШНИНГ ХОРИЙИ ТАЖРИБАЛАРИ ВА УНДАН МАМЛАКАТИМИЗДА FOYDALANISH IMKONIYATLARI. *JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE*, 6(5), 1-11.
20. Erkin o'g, D. S. M., & Abdusamatovich, J. J. (2023). КАМБАГ'АЛИКНИ БАРТАРАФ ЕТИШ ВО'ҲИЧА ЕРИШИЛГАН НАТИЈАЛАР. *JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE*, 6(5), 12-19.
21. Жавманов, Ж. А., Уралов, Б. М., & Очилова, М. Т. (2024). ФИНАНСОВО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РЕАЛИЗАЦИИ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(26), 240-250.
22. Makhmudovich, U. B., Abdusamatovich, J. J., Tashtemirovna, O. M., & Ugli, F. U. K. (2024). TAXATION OF INDIVIDUAL ENTREPRENEURS AS A FORM OF STATE REGULATION OF SELF-EMPLOYMENT. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(26), 232-239.
23. Abdusamatovich, J. J., Makhmudovich, U. B., Tashtemirovna, O. M., & O'g'li, F. U. X. (2024). О 'ZBEKISTONDA INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING GLOBAL TENDENSIYALARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(26), 222-231.
24. Жавманов, Ж. А., Уралов, Б. М., Очилова, М. Т., & Файзуллаев, У. Х. У. (2024). НАЛОГООБЛОЖЕНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ КАК ФОРМА ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ САМОЗАНЯТОСТИ. *SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 7(1), 369-378.
25. Очилова, М. Т., Уралов, Б. М., Жавманов, Ж. А., & Файзуллаев, У. Х. У. (2024). РАЗРАБОТКА МОДЕЛИ РАЗМЕЩЕНИЯ И СПЕЦИАЛИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКЕ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 7(1), 379-386.

26. Уралов, Б. М., Очилова, М. Т., Жавманов, Ж. А., & Файзуллаев, У. Х. У. (2024). СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 7(1), 387-395.
27. Piyos, A., & Uralov, B. Investment Strategy as a Factor of Innovation in Uzbekistan. *JournalNX*, 453-456.
28. Uralov, B., & Ishturdiyev, H. (2023). O 'zbekistonda hududlar kesimida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish holati.
29. Maxmudovich, U. B., Baxtiyorovich, B. M. Z., & Ikrom o'g'li, A. H. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNI AMALGA OSHIRISHNING MOLIYAVIY IQTISODIY MEKANIZMLARI. *JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT*, 7(1), 52-62.
30. Иштурдиев, Х. А. (2023). Совершенствование учета финансовых результатов в агрокластере. *Научный Фокус*, 1(7), 700-708.
31. Murodovich, G. R., & Hassan, I. (2023). IMPROVEMENT OF ACCOUNTING AND AUDIT OF FINANCIAL RESULTS IN BUSINESS ENTITIES. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 1586-1592.
32. Uralov, B., & Ishturdiyev, H. (2023). O 'zbekistonda hududlar kesimida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish holati.
33. Yuldashev, S., & Ishturdiyev, H. (2023). Qishloq xo 'jalik korxonalarida xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini takomillashtirish masalalari.
34. Гайбуллаев, Р. М., & Иштурдиев, Х. (2023). ХЎЖАЛИК ЮРИТИШ СУБЪЕКТЛАРИДА МОЛИЯВИЙ НАТИЖАЛАР ҲИСОБИ ВА АУДИТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *World of Science*, 6(4), 345-351.
35. Абдигаппарович, И. Х., & Юлдашев, Ш. Х. (2024). ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЕТА ЗАТРАТ И СТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ НА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 7(1), 361-368.
36. Narziyeva, G., & Raximova, U. (2023). Superior directions, modern trends and prospects for the development of the financial market.